

**DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISH BILAN BOG'LIQ MA'MURIY TARTIB-
TAOMILLARNI TAKOMILLASHTIRISH****Shafiyeva Mehrangiz Jamol qizi****Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti****e-mail: mehrangizshafiyeva@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.19642255>**

Annotatsiya: Mazkur ishda O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq ma'muriy tartib-taomillarning amaldagi holati, ularning huquqiy asoslari va takomillashtirish yo'nalishlari o'rganilgan. «Yagona darcha» tamoyili, ekstraterritoriallik, raqamlashtirish va «Byurokratiyani bartaraf etish-2030» dasturi doirasidagi o'zgarishlar tahlil qilingan. Xulosa va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ma'muriy tartib-taomil, davlat xizmatlari, «yagona darcha» tamoyili, elektron hukumat, byurokratiya, «Byurokratiyani bartaraf etish - 2030»; ekstraterritoriallik, raqamli transformatsiya.

Shafiyeva Mehrangiz Jamol qizi**Master's Student, Tashkent State University of Law****e-mail: mehrangizshafiyeva@gmail.com**

Abstract. This paper examines the current state of administrative procedures related to the provision of public services in the Republic of Uzbekistan, their legal foundations, and directions for improvement. The study analyzes the "single window" principle, extraterritoriality, digitalization, and reforms implemented under the "Eliminating Bureaucracy – 2030" program. Conclusions and scientifically grounded recommendations have been developed.

Keywords: administrative procedure, public services, "single window" principle, e-government, bureaucracy, "Eliminating Bureaucracy – 2030," extraterritoriality, digital transformation.

Kirish.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish – bu fuqarolar bilan bevosita aloqada bo'ladigan davlat boshqaruvining eng muhim sohasidir. Fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchi, jamiyatdagi huquqiy madaniyat darajasi hamda iqtisodiy faoliyat erkinligi ko'p jihatdan davlat xizmatlari qanchalik tez, sifatli va adolatli ko'rsatilishiga bog'liq. Shu sababli, davlat xizmatlarini tartibga soluvchi ma'muriy tartib-taomillarni takomillashtirish nafaqat boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim sharti, balki demokratik-huquqiy davlatni barpo etishning ham muhim omili hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil ma'muriy islohotlar doirasida ushbu masala alohida ahamiyat kasb etmoqda.

P. Kuznetsovning fikriga ko'ra, davlat xizmatlari ko'rsatishni huquqiy tartibga solishda qonunchilik oldidagi dastlabki muhim vazifa - bu sohaning samarali faoliyati va uning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan tamoyillarni belgilashdir.¹ Darhaqiqat, shuni ta'kidlash lozimki, nafaqat davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq, balki barcha sohada ma'lum bir tartib-taomil bo'lishi lozim deb o'ylayman. Ana shu tartib-taomillar asosida va ma'lum bir tamoyillarga tayanib ish ko'radigan bo'lsak, samarali davlat xizmatlarini ko'rsatilishiga erishishimiz mumkin bo'ladi.

¹ Кузнецов П. У Информационные технологии в юридической деятельности: 2013.-С.139.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek: “Xalq davlat idoralariga emas, balki, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”.²

Asosiy qism. O‘zbekistonda 2016–2017-yillarda boshlangan keng ko‘lamdagi ma‘muriy islohotlar natijasida va uni tartibga solish zaruriyati yuzasidan 2018-yil 8-yanvar “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonun ishlab chiqildi.³ Ushbu qonun davlat xizmatlarini ko‘rsatishda juda muhim o‘rin tutdi. Ushbu qonunning davlat xizmatlarini ko‘rsatishdagi ahamiyati shundan iboratki, qonun “manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi” prinsipini belgilaydi. Ya‘ni, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda fuqaro yoki tashkilotning manfaati birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Bu xizmat ko‘rsatuvchi organning o‘zboshimchaligini cheklaydi. “Byurokratik rasmiyatchilikka yo‘l qo‘yilmasligi prinsipi” — davlat xizmatlarida ortiqcha hujjat talab qilish, bir idoradan ikkinchisiga yuborish kabi noqulayliklar qonunan man etiladi. Ma‘muriy ish yuritishni “bir darcha” orqali amalga oshirish prinsipi — fuqaro bir joyga murojaat qilib, kerakli xizmatni olishi mumkin. Turli davlat organlari o‘rtasida ma‘lumot va hujjatlarni o‘zaro almashish majburiyati belgilanadi. Natijada fuqaro bir idorada mavjud bo‘lgan hujjatni boshqa idoradan qayta talab qilinmaydi. Fuqaro va tashkilotlarning ariza berishi, uni ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish muddatlari va tartibi aniq belgilab qo‘yilgan. Bu xizmat ko‘rsatuvchi organning o‘zboshimchalik bilan ish yuritishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shu bilan birga, har bir davlat organi o‘z xizmatlarini ko‘rsatish tartibini aniq reglamentda belgilashi majburiy. Bu xizmat sifatini standartlashtiradi va nazorat qilishni osonlashtiradi.

Qonunning xalqaro ahamiyati shundan iboratki, mazkur qonun ko‘p jihatdan Germaniyaning “Verwaltungsverfahrensgesetz” (1976),⁴ Avstriyaning ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risidagi qonuni va Yevropa Kengashining ma‘muriy huquq standartlariga mos tarzda ishlab chiqilgan. Bu O‘zbekistonning xalqaro huquqiy standartlarga intilishining yorqin ko‘rinishidir.

O‘zbekistonda «yagona darcha» tamoyilini joriy etish 2017-yildan boshlangan bo‘lib, Davlat xizmatlari markazlari (DXM) tizimini shakllantirish orqali amalga oshirildi. Ushbu tizim fuqarolarga bir murojaat nuqtasida bir nechta idoralar xizmatlarini olish imkonini beradi — bu mamlakatimiz ma‘muriy huquqida sifat jihatidan yangi hodisadir.

2019-yildan boshlab barcha DXMlarda **ekstraterritoriallik tamoyili** joriy etildi: fuqaro doimiy ro‘yxatga olish joyidan qat‘i nazar, istalgan markazga murojaat qilish huquqini qo‘lga kiritdi. Bu o‘zgarish, ayniqsa, mehnat migratsiyasi ko‘p bo‘lgan hududlarda ahamiyatli — fuqaro hujjat olish uchun o‘z tumaniga bormasa ham bo‘ladi. 2023-yilning o‘zida **800 000 dan ortiq** mobil xizmat ko‘rsatildi, bu esa tizimning qishloq aholisini qamrab olishga intilishidan dalolat beradi.⁵

Garchand shuncha islohotlar bo‘lishiga qaramay, amaliyot bir qator kamchiliklarni ko‘rsatmoqda. Birinchidan, DXMlar soni hududlar bo‘yicha notekis taqsimlangan: shahar markazlari bilan qiyoslanganda tog‘li va chegara tumanlarda xizmat markazlariga fizik yetib borish muammoli. Ikkinchidan, «yagona darcha» tamoyili «front-office»ni yaxshilagan, biroq «back-office» — ya‘ni idoralar ichidagi hujjat oqimi — ko‘p hollarda eski qog‘oz shakli asosida

²<https://kun.uz/news/2017/08/31/halk-davlat-idoralariga-emas-balki-davlat-organlari-halkimizga-hizmat-kilisi-kerak-prezident-nutki>

³ Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-3492199>

⁴ Verwaltungsverfahrensgesetz <https://www.gesetze-im-internet.de/vwvfg/>

⁵ O‘zbekiston Bosh konsulligi. Uzbekistan is creating a system of public services without bureaucracy and corruption. 2024. URL: uzconsulate-aktau.kz/en/2024/

ishlashda davom etmoqda. Bu esa fuqaroga ko'rinadigan tezlashuvni umumiy tizim samaradorligidan ajralib qolishiga olib kelmoqda.

Statistika. 2019-yilda e'lon qilingan "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonun va "Raqamli O'zbekiston – 2030" davlat dasturi raqamli transformatsiyani huquqiy jihatdan mustahkamladi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (**my.gov.uz**) ishga tushirildi, raqamli imzo va biometrik identifikatsiya (**MyID**) joriy etildi. 2024- yilga kelib portal orqali xizmatdan foydalanuvchilar soni 10 milliondan oshdi, Jahon banki GovTech indeksida esa O'zbekiston Markaziy Osiyoda 1-o'ringa, jahon miqyosida esa 9-o'ringa ko'tarildi. 2020-yildagi 80-o'rin bilan solishtirganda bu sezilarli yutuq.⁶

Huquqiy soha nuqtayi nazaridan, raqamlashtirish ma'muriy tartib-taomillarga ikki jihatdan ta'sir ko'rsatmoqda. **Birinchidan, protsessual vaqt qisqarmoqda:** 2017-yildan beri fuqarolardan talab etiladigan 130 dan ortiq hujjat turi bekor qilindi, davlat organlari zarur ma'lumotlarni o'zaro elektron tizimlardan bevosita olmoqda. **Ikkinchidan, korrupsiya xavfi kamaymoqda:** mansabdor shaxs bilan bevosita muloqot minimallashtirishi pora berish yoki tazyiq o'tkazish uchun imkoniyatni kamaytiradi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, raqamlashtirishning yolg'iz o'zi korrupsiyani bartaraf etmaydi.

Muammolar va tavsiyalar:

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda ma'muriy tartib-taomillardagi quyidagi tarkibiy muammolar aniqlanib tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Maxsus soha qonunlarida ma'muriy tartib-taomilga oid normalarni "Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks" bilan uyg'unlashtirish bo'yicha tizimli yuridik ekspertiza o'tkazish va ziddiyatli normalarni bartaraf etish.

2. Ma'muriy tartib-taomillar doirasida majburiy doimiy mediatsion bosqichini joriy etish — fuqaro va davlat organi o'rtasidagi nizoni sudgacha hal etish mexanizmi sifatida (Germaniya va Fransiya tajribasi asosida).

3. "Byurokratiyani bartaraf etish — 2030" dasturini huquqiy jihatdan mustahkamlash: har bir yangi ma'muriy tartib-taomilni joriy etishdan oldin "byurokratik yukni baholash" (regulatory impact assessment) majburiy prosedurasi sifatida qonunchilikda belgilash.

4. Qishloq va masofaviy hududlarda raqamli xizmatlardan foydalanish huquqini ta'minlash maqsadida "raqamli yetib borish standarti"ni (minimum digital access standard) normativ hujjat darajasida mustahkamlash.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda ma'muriy tartib-taomillarni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar — «yagona darcha» tamoyilini joriy etish, ekstraterritoriallik, raqamlashtirish va normativ bazaning yangilanishi — huquqiy munosabatlar sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq tarkibiy o'zgarishlar qonunchilik darajasida boshlangan bo'lsa-da, ularning to'liq amaliyotga tatbiq etilishi hali davom etayotgan jarayon hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, samarali ma'muriy tartib-taomil uchun uchta shart bir vaqtda bajarilishi lozim: normativ asos (qonunlarning o'zaro uyg'unligi), protsessual kafolat (apellatsiya va mediatsion mexanizmlari) va texnologik infratuzilma (hamma uchun teng raqamli yetib borish). Ushbu uchta shart birgalikda ishlamaganda, islohotlar to'liq samarasini bera olmaydi.

⁶ World Bank. GovTech Maturity Index 2024. Washington: World Bank Group, 2024. URL: worldbank.org/en/programs/govtech

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-3492199>
2. Кузнецов П. У Информационные технологии в юридической деятельности: 2013.- С.139.
3. <https://kun.uz/news/2017/08/31/halk-davlat-idoralariga-emas-balki-davlat-organlari-halkimizga-hizmat-kilisi-kerak-prezident-nutki>
4. Verwaltungsverfahrensgesetz <https://www.gesetze-iinternet.de/vwvfg/>
5. O'zbekiston Bosh konsulligi. Uzbekistan is creating a system of public services without bureaucracy and corruption. 2024. URL: uzconsulate-akta.kz/en/2024/
6. World Bank. GovTech Maturity Index 2024. Washington: World Bank Group, 2024. URL: worldbank.org/en/programs/govtech